

Termiz shahar sektor rahbarlari “Xalq bilan muloqot” ko‘rsatuvida chiqish qilishdi

Termiz shahar sektor rahbarlari “Xalq bilan muloqot” ko‘rsatuvida chiqish qilishdi

Termiz shahrida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, shuningdek, aholidan kelib tushayotgan murojaatlar yuzasidan joriy yilning 26 iyun kuni Surxondaryo viloyat televideniyasining “Xalq bilan muloqot” ko‘rsatuvi to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilib, 1 soat 40 daqiqa davom etdi. Unda Termiz shahar hokimi, sektor rahbarlari, shuningdek hokimning sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlari, tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirok etishdi.

Ko‘rsatuv davomida fuqarolarning murojaat va takliflari tinglandi va mas’ullar tomonidan javoblar berildi. Shu kunning o‘zida murojaatlarning ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi nazoratga olindi.